

KNAUF-Flexendixt

Lateksli gidroizolyatsiya

Tayyor tarkiblar

01/2026



Qo'llanish sohasi

KNAUF-Flexendixt sintetik lateks va inert to'ldiruvchining suvli dispersiyasi ko'rinishida bo'lib, havorang tusli, bino ichidagi devor va pollar yuzasini gidroizolyatsiyalashda ishlatiladi. Tarkibida erituvchilar mavjud emas.

Quyidagi ishlarda qo'llaniladi:

- nam va ho'l binolarni, masalan, vannaxona, dushxona va boshqa xonalarni gidroizolyatsiyalashda;
- namga sezgir asoslarni (gipsli suvoq, gipskarton qoplamalar, gipsli pollar, bloklar, plitalar v.b.) gidroizolyatsiyalashda;
- gidroskopik mineral asoslarni (ohakli, ohak-sementli va sementli suvoqlar, sement plitalar, sement pollar, beton, g'ovak beton v.b.) gidroizolyatsiyalashda;
- keramik plitalar va tabiiy tosh qoplashdan oldin suv o'tkazmas, elastik gidroizolyatsiya hosil qilishda (KNAUF-Flexendixtband Pro tasmasi va sement asosli plita yelimi, masalan, KNAUF-Flizen Plyus, KNAUF-Mramor, KNAUF-Fleks) bilan birgalikda, shuningdek isitiluvchi pol va devorlar qurishda.

Qadoqlash va saqlash

Qadoqni quyosh nurlari to'g'ri tushishidan himoyalani. Harorati -40 °C dan +30 °C gacha bo'lgan quruq binoda, isituvchi jihozlardan narida, bolalar tegmaydigan joyda saqlanadi. Muzlaganida isitish jihozlari yoki qaynoq suv yordamida erishini tezlatish kerak emas, bu mahsulot buzilishiga olib keladi. Xona haroratida muzdan tushiriladi. Gidroizolyatsiya 5 siklgacha muzlash va erishga chidaydi. Muhri buzilmagan va shikastlanmagan qadoqda saqlanish muddati - 18 oy.

Texnik xususiyatlari

- Gidroizolyatsiya qatlamining umumiy qalinligi:
 - nam holda: ~ 1,1 mm;
 - qurigandan so'ng: ~ 0,8 mm.
- Qurish vaqti (harorat +20 °C va havo namligi 50% bo'lganida):
 - qatlamlar surtish orasida: 3 soatdan kam emas;
 - plitka qoplashdan oldin: 12 soatdan kam emas.
- Qurigandan so'ng haroratbardoshliligi: -20 °C dan +80 °C gacha;
- Adgeziya: 1,5 MPa;
- Suv o'tkazmasligi: 0,7 MPa (W7);
- Yoriqlarni yopish: 2,5 mm.

Materiallar sarfi

Sarf har bir izolyatsiyalovchi qatlamning 1 m² yuzasiga ko'rsatilgan.

Material	O'lchov birligi	Miqdori
Silliq asoslar uchun	kg/m ²	0,35-0,5
Dag'al, g'ovakli asoslar uchun	kg/m ²	0,45-0,7

Sarf 1 m² asos yuzaga ko'rsatilgan.

Material	O'lchov birligi	Miqdori
Silliq asoslar uchun	kg/m ²	0,7-1,0
Dag'al, g'ovakli asoslar uchun	kg/m ²	0,9-1,4

Bir chelak KNAUF-Flexendixt (5 kg) 3,6-7,2 m² yuzaga ishlov berishga yetadi.

Ishlar tartibi

Asos yuzasini tayyorlash

Asos mustahkam, toza va quruq bo'lishi, moy, yog', ajratuvchi qatlamlar, chang hamda lak, bo'yoq va qorishma qoldiqlarining alohida bo'sh (mustahkam bo'lmagan) zarrachalaridan tozalangan bo'lishi kerak. Yoriq va choklar shpaklyovkalanadi. Asosdagi notekisliklarni gidroizolyatsiya yordamida tekislash mumkin emas. Kuchsiz va bir meyorda shimuvchi, shuningdek uqalanuvchi asos oldindan KNAUF-Tifengrund bilan astarlanadi (gruntovkalanadi). Gazobeton kabi kuchli shimuvchi asos suv bilan 1:4 nisbatda suyultirilgan KNAUF-Flexendixt bilan gidroizolyatsiyalanadi. Gidroizolyatsiya surtishdan oldin asosga namlik kapillyar sizib otishini oldini Olish kerak, sement polda 2% dan, gips polda 0,5% dan, suvoqda 1% dan, isitiladigan asosda esa 0,3% dan ortiq qoldiq namlik bo'lmasligi kerak.

Qorishma tayyorlash

KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsiyasi qo'llashga tayyor. Foydalanishdan oldin aralashtiring.

Qo'llanishi

KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsiyasi astarlanib (gruntovkalanib) to'la qurigan asosga butun sirt bo'ylab suyultirilmagan holda cho'tka yoki valik bilan kamida ikki qatlam surtiladi. Bir tekisda yupqa qatlam bilan surtilishi kerak. Qatlamning umumiy qalinligi har qanday joyda 0,8 mm dan oshmasligi kerak. Devor va POI, devorlar orasidagi choklarga oldindan KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsiyasi surtiladi va hali yangi qatlamga KNAUF-Flexendixtband Pro izolyatsion tasmasi hamda KNAUF tashqi va ichki gidroizolyatsion burchaklari 5-7 sm ustma-ust qilib yopishtirilib, tasmaning Poliestr mato asosidan chiqib qolgan gidroizolyatsiya shpatel bilan tekislanadi.

O'zi yopishtiriladigan izolyatsion tasma ishlatilganda uni qurigan birinchi gidroizolyatsiya qatlamiga ikkinchisini surtishdan oldin qoplanadi. Poldagi truboprovod va otvodlarni ham KNAUF gidroizolyatsion manjeti bilan izolyatsiyalanadi. Manjetlar quvurlarga kiydiriladi va yangi gidroizolyatsiya qatlamiga ham qoplanadi. Gidroizolyatsiyaning birinchi izolyatsiyalovchi qatlami ishlov beriladigan butun yuza bo'ylab uzluksiz surtiladi. Ikkinchi va zarur bo'lsa, uchinchi qatlami faqatgina avvalgi qatlamlari butunlay qurigandan keyin surtiladi. Har bir qatlamning qurish muddati kamida 3 soat (+20 °C harorat va 50% havo namligida). Yuqoriroq namlik va pastroq haroratlarda qurish muddati cho'zilishi mumkin. G'ovak asoslar uchun uchta qatlam surtish tavsiya etiladi. Materialni sarflashning minimal hajmiga rioya etish lozim: qalin gidroizolyatsiya qatlami juda sekin quriydi, shu bois, har birini quritib, ketma-ket bir nechta yupqa qatlam surtish talab qilinadi.

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59

+998 78 150 11 60

+998 78 150 11 61

KNAUF | Tayyor tarkiblar | 20.01.2026 yildan amal qiladi | www.knauf.uz | 2 Sahifa

Keramika plitkalarni faqat qurigan gidroizolyatsiya yuzasiga yopishtirish mumkin, ammo oxirgi qatlam surtilgandan so'ng kamida 12 soat o'tishi lozim (+20 °C va havo namligi 50% bo'lganida). Plitkalarni suvga bardoshli yelim bilan yopishtirish kerak, masalan KNAUF-Flizen Plyus (yelimning tavsiya etilgan qalinligiga amal qilish muhim, bu 5 mm dan ko'p emas). Tayyor dispersli plitka yelimlari uzoq qotishi sababli KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsiyasi surtishga yaramaydi (plitka "suzadi").

Tavsiyalar

- KNAUF-Flexendixt ni tevarak-atrof va asosning harorati +5 °C dan baland va +25 °C dan past bo'lganda surtiladi;
- KNAUF-Flexendixt ni boshqa moddalar bilan aralashtirish mumkin emas (suvdan tashqari);
- KNAUF-Flexendixt har doim asosning nam ta'sir o'tkazadigan tomoniga surtiladi;
- Izolyatsion qatlamga shikast yetkazilmaydi, unga narsalarning o'tkir qirralari ta'sir ko'rsatishidan qochiladi. KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsiyasini mexanik shikastlanish xavfi ostidagi ochiq ishchi yuzada qo'llab bo'lmaydi;
- Plitkalar tarkibida erituvchi bo'lmagan yelim bilan yopishtirilishi zarur;
- Ish tugallanishi bilanoq asbob-uskunalar suv bilan yuvilishi kerak. Qotib qolgan material yuqini faqat mexanik usulda ko'chirish mumkin.

Qo'llanishi bo'yicha cheklollar

KNAUF-Flexendixt ni oqmas suvning doimiy bosimi ostida, masalan, ichimlik suvi bochkalari, quduqlar, cho'miladigan hovuzlar, favvoralar v.b.da ishlatish mumkin emas.

Asboblalar

- Keng metall shpatel (kengligi 200-300 mm);
- Tashqi va ichki burchaklar uchun metall shpatel;
- Shpaklyovkasi qotgan yuzani qumqog'ozlash uchun qumqog'ozlovchi to'rlı qirg'ich.

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.